| 30 | **VEB-SAYTLARGA JOYLASHTIRILISHI KERAK BO‘LGAN MA'LUMOTLAR TURI KENGAYDI**<br><br>“Davlat ishtirokidagi xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni oshkor etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Hukumat qarori (674-son, 30.10.2020 y.) qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, vazirlik va idoralarning rasmiy veb-saytlarida mulkdor funksiyalari amalga oshirilayotgan davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarining quyidagi ma'lumotlari joylashtiriladi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/567<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/4009<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/567<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/4987 |
| 31 | **SAODATGA INTILISHI RAMZI**<br><br>► “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun 1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan.<br><br>► Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o‘zida mujassamlashtiradi.<br><br>► Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu — yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham moviy rangda edi. | http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/577<br>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/577<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5090<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5084<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5083 |

| | | |
|---|---|---|
| **32** | **«O'ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA «KORRUPSIYA — TARAQQIYOT KUSHANDASI» MAVZUSIDA SEMINAR-TRENINGLAR O'TKAZILMOQDA**<br><br>Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki hamda Angliyaning «Good corporation» kompaniyasi tavsiyasiga asosan «INVESTMENT AND SAPITAL MANAGEMENT» mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorligida 2020-yilning oktyabr oyidan «O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyatining markaziy boshqaruv apparati hamda hududiy filiallarida (*Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida*) **«Korrupsiya — taraqqiyot kushandasi» mavzusida seminar-treninglar** o'tkazilib kelinmoqda. Karantin qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazilayotgan mazkur turkum seminar-trening mashg'ulotlarida «O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish usullari hamda Jamiyatning komplaens-nazorat tizimi bo'yicha ko'rgazmali slaydlar yordamida ma'ruzalar tinglanmoqda. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/568<br><br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/568<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5004<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/4997<br><br>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-11-07<br><br>https://telegra.ph/uzbekistonmet-uz-11-07<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5000 |
| **33** | **«O'ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI» AKSIYADORLIK JAMIYATI: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, INVESTITSION LOYIHALAR, YANGI QUVVATLAR, JORIY VA MUKAMMAL TA'MIRLASH ISHLARI**<br><br>Umumiy quvvati 881 MVA bo'lgan 10 ta kuch transformatorlari, 91 ta 110–500 kVli o'chirgichlar, 19 ta kompressor qurilmalari va 1148,2 km uzunlikdagi 110–500 kV havo liniyalarida mukammal ta'mirlash ishlari yakunlandi.<br><br>Shu bilan bir qatorda, joriy ta'mirlash rejasiga asosan 110–500 kVli elektr uskunalarida 247 dona podstansiya transformatorlari va avtotransformatorlar (yillik rejaga nisbatan 108 foiz), 1391 dona o'chirgichlar (102 foiz), 43 dona havo kompressorlari (105 foiz) hamda 3 844,7 km uzunlikdagi havo elektr tarmoqlarida (106 foiz) joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Elektr tarmoqlari ishonchliligini oshirish maqsadida 1450 dona LK rusumli izolyatorlari o'rnatildi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/570<br><br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/570<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5009 |
| **34** | **«NAVOIY MAGISTRAL ELEKTR TARMOQLARI» FILIALIDA SPORT MUSOBAQASI G'OLIBLARI ANIQLANDI**<br><br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni asosida jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlash, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilarni aniqlash maqsadida magistral elektr tarmoqlari korxonalarida ham turli sport musobaqalari tashkil etilmoqda. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/590<br><br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/590<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5173<br><br>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-11-27-2 |

| | | |
|---|---|---|
| **35** | **AOKADA BRIFING: «ENERGOTIZIMDA MUVOZANATNI SAQLASH — KECHIKTIRIB BO‘LMAS USTUVOR VAZIFA»**<br>O‘zingizga ma'lum, kuz-qish mavsumining ilk kunlaridanoq ob-havoning keskin pasayishi tufayli yurtimizda energoresurslarga ehtiyoj sezilarli darajada oshdi, xususan elektr ta'minotida turli sabab va omillar tufayli uzilishlar kuzatilmoqda.<br>Yuqoridagilarni hisobga olib, murojaatchilardan kelib tushgan va elektr energetika tarmog‘iga taalluqli ayrim so‘rovlarni umumlashtirgan holda e'tiboringizga savol-javob shakliga havola etamiz.<br>📌 Savol: Energetika sohasining elektr energetika tarmog‘iga mas'ul tashkilotlar nomi va ularning asosiy vazifalarini sanab bersangiz...<br>📌 Savol: Elektr ta'minotidagi uzilishlarning asosiy sabablarini sanab bera olasizmi?<br>📌 Savol: Nima uchun dispetcher iste'molchilarni tarmoqdan uzishga majbur bo‘ladi? Dispetcher elektr ta'minotini uzmasa nima bo‘ladi?<br>📌 Savol: Xo‘sh, energotizimda muvozanat saqlash shunchalik muhim ish ekan, ushbu talablarga rioya qilinmaganda sodir bo‘lgan yirik avariyalarga misollar bormi?<br>📌 Savol: O‘zbekistonda yirik avariyalar sodir bo‘lmasligi uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayoni iste'molning oshib borishiga qarab rivojlantirilib borilmoqdami?<br>📌 Savol: Demak, iste'molchilar sifatli va uzluksiz elektr ta'minotidan foydalanishlari uchun undan samarali foydalanishlari kerak ekan-da?<br>📎 «O‘zbekistonda elektr energiyasi yetib bormagan hududlar» deb atalishi birmuncha noto‘g‘ri tushuncha bo‘lib, elektr ta'minoti tarmog‘iga ulangan har qanday iste'molchilarga elektr energiyasi ishlab chiqarilgan ondayoq, soniyaning yuzdan bir necha bo‘laklari ichidayoq yetib boradi!<br>📌 Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va taqsimlovchi tashkilotlar elektr ta'minoti uzilishidan manfaatdor emas. Aksincha, iste'molchilarga yetkazib berilmagan energoresurslar ishlab chiqarishda «yo‘qotilgan foyda» hisoblanadi.<br>📎 Nosozliklar bartaraf etilayotgan paytda xavfsizlik texnikasi talablariga muvofiq tarmoqqa ulangan iste'molchilar vaqtincha tarmoqdan uzilib turilishi mumkin.<br>📌 Elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'mol o‘rtasidagi tafovut tizimning yaxlitligiga, barqaror faoliyatiga salbiy ta'sir etganda ma'lum texnik shartlar asosida, tarmoqdan uzishlar sodir bo‘lishi mumkin. Bu jarayon avtomatik tarzda ro‘y berib, tizimning keyingi barqaror faoliyati uchun uni himoyalash sharti bilan ro‘y beradi.<br>📎 O‘zbekistonda 2020-yil 20 noyabr kuni Markaziy dispetcherlik markazi mutaxassislari tomonidan belgilangan xavfsizlik tezkor choralari qo‘llanilib yirik avariyaning oldi olindi.<br>📌 Iste'molning oshib borish poygasiga ishlab chiqarish yetib olishining eng oson va arzon yo‘li — iste'mol | https://t.me/minenergy_uz/2444<br>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/597<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/597<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5186<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5194<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5195<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5196<br>https://kun.uz/48730591<br>https://kun.uz/ru/news/2020/11/28/nazvany-dve-osnovnyx-prichiny-otklyucheniya-elektrichestva-v-uzbekistane<br>https://kun.uz/en/05944052<br>http://xs.uz/uzkr/45372<br>http://jahon.uz/index.php?newsid=6279<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5197<br>http://xs.uz/uzkr/post/notogri-qurilgan-ujlardagi-elektr-energiya-istemoli-qurilishga-sarflangan-mablagdan-ming-marotaba-kop-mablag-sarflanishiga-olib-keladi<br>https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/11156<br>https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/11157<br>https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/11158<br>https://teznews.uz/?p=64304?utm_source=@teznewsuz<br>http://darakchi.uz/uz/108494<br>https://sputniknews-uz.com/society/20201129/15497023/Elektr-taminotidagi-uzilishlarning-asosiy-sabablari-aytildi.html<br>https://rossaprimavera.ru/news/7dbc4719<br>https://nova24.uz/news/16871/<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5214<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5211<br>https://www.facebook.com/112376337156697/photos/a.112379953823002/208091807585149/<br>https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697/photos/a.112379953823002/208090050918658 |

| | | |
|---|---|---|
| | madaniyatini shakllantirish orqali mamlakatda energiya samaradorligini va tejamkorligini ta'minlash.<br><br>📎Harakat va yorug‘likni ilg‘ovchi sensorli moslamalar o‘rnatilishi energiya tejamkorligining oson va arzon usulidir. Qimmatbaho energoresurslardan maqsadli foydalanish nafaqat xonadon yoki sanoat korxonalarida, balki shaharsozlik loyihalarida ham o‘z aksini topishi zarur.<br><br>📌 O‘zbekistonda quyosh panellari va shamol generatorlaridan foydalanuvchi «yashil energiya»ning ilk loyihalari 2021-yilning oxiri va 2022-yilning boshlarida foydalanishga topshiriladi. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining salmog‘i mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumhajmining 25%dan kam bo‘lmasligi Hukumat qarorlarida strategik vazifa sifatida belgilangan.<br><br>📎Iste'molchilarning to‘lov evaziga elektr energiyasidan foydalanish huquqidan tashqari energiyatejamkorlik va energiyasamaradorlik masalasida ma'lum majburiyatlari ham bor. O‘zbekiston elektr energiyasidan umumiy qarzdorlik 3,5 trillion so‘mni tashkil qilmoqda, unda aholining qarzdorligi 2,4 trillion so‘mdan ziyod.<br><br>📌 Atrof-muhit tozaligini saqlash, o‘z farzandlarimiz va kelajak avlodlarimiz sog‘lig‘ini asrash, jamiyatimiz ravnaqi va jonajon yurtimiz rivojiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan elektr energiya ta'minotidan oqilona foydalanish va tejamkorlik madaniyatini yuksaltirish masalalariga ongli munosabatda bo‘lish — davr talabi! | https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697/photos/a.112379953823002/208089434252053<br><br>https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697/photos/a.112379953823002/208087254252271<br><br>https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697/photos/a.112379953823002/197176725343324<br><br>https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697/photos/a.112379953823002/197176558676674<br><br>http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/597<br><br>https://www.facebook.com/112376337156697/videos/390820019003239<br><br>https://www.facebook.com/112376337156697/videos/203003098040509 |
| **36** | **FM.87.9: «O‘ZBEKISTON–24» RADIOKANALINING «MUHIM MAVZU» DASTURIDA ISTE'MOLCHILARGA TABIIY GAZ VA ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISHDA YUZAGA KELAYOTGAN AYRIM MUAMMOLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING YECHIMLARI MUHOKAMA ETILDI**<br><br>O‘zingizga ma'lum, kuz-qish mavsumining ilk kunlaridanoq ob-havoning keskin pasayishi tufayli yurtimizda energoresurslarga ehtiyoj sezilarli darajada oshdi, energetika sohasida taqchillik yuzaga keldi, xususan tabiiy gaz va elektr ta'minotida uzilishlar kuzatilmoqda.<br><br>Dasturida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish uchun safarbar qilingan kuchlar, amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar, qurilish-montaj va modernizatsiya-rekonstruksiya amaliyotlari, shu bilan birga, muammolar vujudga kelishiga sabab bo‘layotgan bir nechta ta'sir omillari haqida davra suhbati uyushtirildi. | https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5220<br><br>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/598<br><br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/598 |
| **37** | **«ANDIJON MAGISTRAL ELEKTR TARMOQLARI» FILIALI TARKIBIDAGI 220/110/10 KV LI «YULDUZ» PODSTANSIYASIDAGI MODERNIZATSIYA VA REKONSTRUKSIYA ISHLARI**<br><br>Hozirda 220 kVli «Yulduz» podstansiyasida mavjud o‘tkazuvchanlik quvvatini oshirish maqsadida 2 dona 125 MVA avtotransformatorni o‘rniga 2 dona 200 MVA avtotransformatori o‘rnatilib, ishga tushirildi. **Andijon viloyati xalq xo‘jaligi ob'ektlarini elektr energiyasi bilan ta'minlashda qo‘shimcha 150 MVt quvvat qo‘shildi.** | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/600<br><br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/600<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5289<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5224 |

| | | |
|---|---|---|
| **38** | **ANDIJONDA ELEKTR ENERGIYASI TA'MINOTI YANADA YAXSHILANADI**<br>O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati «Andijon magistral elektr tarmoqlari» filialining yangi binosi foydalanishga topshirildi.<br>Yangi bino ochilishiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirda so‘z olgan Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Dadajon Isaqulov va boshqalar tomonidan mamlakatimizda tizimda olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar natijasida elektr energiyasi ta'minoti yildan-yilga yaxshilanib borayotganligi, bu iqtisodiyotimiz hamda aholi turmush farovonligini yuksalishiga xizmat qilayotganligi ta'kidlandi. | https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5289<br>https://uza.uz/uz/posts/andizhonda-elektr-energiyasi-taminoti-yanada-yaxshilanadi_192198<br>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/608<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/608 |
| **39** | **ENERGETIKLARNING SPORT TADBIRLARI: MEHNAT FAOLIYATIDAGI UNUM VA SAMARA SARI TASHLANAYOTGAN DADIL QADAMLAR**<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30 oktyabrdagi «Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi **PF-6099-son Farmonining ijrosi** bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq **«O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJ Birlashgan kasaba uyushmasi** hamda **Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti hamkorligida** Jamiyatning «Uchqun» sport kompleksida shaxmat, shashka va stol tennisi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/605<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/605<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5358<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5333<br>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-12-06<br>https://www.facebook.com/112376337156697/photos/a.112379953823002/218381239889539/ |
| **40** | **ONLAYN MULOQOT: MARKAZIY OSIYO ENERGETIKA TIZIMLARI MUVOFIQLASHTIRISH KENGASHINING NAVBATDAGI 34-YIG‘ILISHI BO‘LIB O‘TDI**<br>Kengashda doimiy ishtirokchilar, Qozog‘iston **(“KEGOC” AJ),** Qirg‘iziston **(“Qirg‘iziston MET” AJ),** O‘zbekiston **(“O‘zbekiston MET” AJ)** va Tojikiston **(“Barki Tochik” OAXK)** energetika tizimlarining vakillari ishtirok etishdi.<br>Onlayn muloqotda «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi D.A.Isaqulov, Boshqaruv raisining o‘rinbosari J.T.Ashirboyev hamda Markaziy dispetcherlik markazi — Tizim xizmatlari bo‘yicha bosh boshqarma boshlig‘i A.T.Mirzayev va boshqalar ishtirok etishdi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/613<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/613<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5322<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5324<br>https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697 |
| **41** | **«O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI» AKSIYADORLIK JAMIYATI: MINI FUTBOL BO‘YICHA MUSOBAQA G‘OLIBLARI ANIQLANDI**<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmonining ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq bir qator sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Misol uchun, «Uchqun» sport-sog‘lomlashtirish majmuasida Markaziy boshqaruv apparati xodimlari o‘rtasida, so‘ngra «Sirdaryo magistral elektr tarmoqlari»,«Toshkent magistral elektr tarmoqlari», «Navoiy magistral elektr tarmoqlari», «Namangan magistral elektr tarmoqlari» filiallari hamda «Azamat» sport-sog‘lomlashtirish markazida o‘tkazilgan shaxmat, shashka va stol tennisi bo‘yicha musobaqalar haqida ma'lumot bergan edik. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/615<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/615<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5335<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5358 |

| | | |
|---|---|---|
| 42 | **JAMIYAT TARKIBIDAGI PODSTANSIYALARDA YONG‘IN XAVFSIZLIGI QOIDALARI TALABLARIGA RIOYA ETILISHI SEMINAR-TRENINGLAR, KO‘RIK TANLOV MASHG‘ULOTLARI ORQALI ANIQLANMOQDA**<br>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati tarkibida **78 ta yuqori kuchlanishli podstansiyalar** mavjud. O‘z-o‘zidan ma'lumki, elektr energetika tarmog‘ining barcha qurilma va jihozlari kun davomida **24 soat, yil davomida 12 oy — qahraton qish va jazirama yoz sharoitlarida ham kecha-yu kunduz barqaror faoliyat ko‘rsatishi** lozim.<br>Demak, 220–500 kVli podstansiyalarda xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassis-xodimlar turli texnik-muhandislik holatlariga tayyor bo‘lishi talab etiladi. Bunday holatlar esa aynan kuz-qish mavsumida ko‘proq, iste'molning keskin oshishi natijasida kuzatilishi tabiiy hol.<br>Ko‘rik doirasida o‘tkazilgan seminar va mashg‘ulotlar foto, videotasmaga tushirilib, disklar va fotoalbomlar shaklida komissiyaga taqdim etilmoqda. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/618<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/618<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5383<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5362<br>https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697/photos/pcb.220782072982789/220767052984291/ |
| 43 | **MAROQLI DAM OLISH DAVRIDAGI SAMARALI AMALIYOT**<br>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatida bir ajobiy an'ana bor: ichki imkoniyatlarni ishga solgan holda mutaxassis-xodimlarning malakasini oshirib borish maqsadida tez-tez o‘quv seminarlari, malaka oshirish kurslari tashkil etib turiladi.<br>Ichki imkoniyat deyilganda, Jamiyatda mavjud Ustoz-murabbiylar guruhi, ya'ni «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJda mehnat faoliyati olib borayotgan, ilmiy darajaga ega mutaxassis kadrlarning bilim-tajribasi hamda pedagogik mahoratidan foydalanishdan tortib, malaka oshirish amaliyotlarini Jamiyat tarkibidagi korxonalarda amalga oshirilayotgan qurilish-montaj, modernizatsiya-rekonstruksiya ishlari jarayonida o‘tkazishlargacha bo‘lgan an'anaviy ishlar nazarda tutilmoqda.Bugun “Nurafshon” sanatoriyasida 2020-yil 9-dekabrdan bugungi sanagacha — 18-dekabrgacha davom etgan “Elektr texnika nazariyasi asoslari” bo‘yicha 14 ta filiallarning 22 nafar elektromontyorlari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari o‘z nihoyasiga yetmoqda. Darslar Texnologik sarflarni tahlil qilish bo‘limi boshlig‘i S.Eshonqulov hamda “Farg‘ona MET” filiali direktori G‘.Shermatovlar tomonidan olib borildi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/623<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/623<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5381<br>https://www.facebook.com/Ozbekiston-milliy-elektr-tarmoqlari-aksiyadorlik-jamiyati-112376337156697/photos/pcb.220764969651166/220764406317889/<br>https://twitter.com/uzbekistonmet/status/1339808419319078912/photo/1 |
| 44 | **«TOSHKENT SHAHAR MAGISTRAL ELEKTR TARMOQLARI» FILIALIDA SHAXMAT, SHASHKA, FUTBOL VA STOL TENNIS BO‘YICHA TUNIR BO‘LIB O‘TDI**<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek yaqinlashib kelayotgan Energetiklar kuni munosabati bilan «Toshkent shahar MET» filialida soha xodimlari, yoshlar, xotin-qizlar o‘rtasida sportning shaxmat, shashka, futbol va stol tennisi turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi.<br>*Musobaqa g‘oliblarini Kasaba uyushmasi boshlang‘ich tashkiloti esdalik sovg‘alari bilan taqdirladi.* | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/624<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/624<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5410 |

| | | |
|---|---|---|
| **45** | **ENERGETIKLAR KUNI ARAFASIDA SOHA VAKILLARI MUNOSIB TAQDIRLANMOQDA**<br>Sohada 35 yil va undan ortiq xizmat koʻrsatgan xodimlar, shu bilan birga, yillar davomida oʻz xizmatini soha rivoji, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovon hayotiga bagʻishlangan bir nechta hamkasblarimiz Jamiyat ma'muriyati tomonidan munosib taqdirlandi.<br>2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi Elektrenergetika kengashining 56- va 57-qaroriga asosan “Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi Energetika faxriysi” faxriy unvoni bilan 2 nafar Jamiyat xodimlari taqdirlandi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/630<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/630<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5421 |
| **46** | **Samarqandlik energetiklarni “Oʻzbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi tabrikladi**<br>“Bayram munosabati bilan «Samarqand magistral elektr tarmoqlari» filialida oʻtkazilgan tadbirda Jamiyat boshqaruv raisi D.A.Isaqulov ishtirok etib, soha vakillarini kasb bayrami bilan qutladi.<br>Shuningdek, tadbirda 2021-yilda Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan investitsion loyihalar, modernizatsiya-rekonstruksiya ishlari hamda qurilish-montaj amaliyotlari muhokama etildi. | https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5423<br>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/631<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/631 |
| **47** | **“Oʻzbekiston MET” AJ Yoshlar ittifoqi boshlangʻich tashkiloti yetakchilari boshchiligida olib borilayotgan ishlar tanqidiy ruhda tahlil etildi**<br>Filial yetakchilarining hisobotlari tinglanib, boshlangʻich tashkilotlar faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimi borasida takliflar muhokama etildi. | https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5424<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/632<br>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/632 |
| **48** | **«Buxoro magistral elektr tarmoqlari» filialida seminar, 500 kVli «Qorakoʻl» podstansiyasida namunaviy mashgʻulotlar oʻtkazildi**<br>2020-yil 23-dekabr kuni «Buxoro magistral elektr tarmoqlari» filiali binosida koʻrgazmali seminar hamda 500 kVli «Qorakoʻl» podstansiyasida harbiy tayyorgarlik mashgʻulotlari tadbiri oʻtkazildi. Namunaviy mashgʻulotlar tadbirida «Oʻzbekiston MET» AJ Xavfsizlik va maxsus ishlar boshqarmasi xodimlari, muhim ob'ektlarga ega 7 ta viloyat magistral elektr tarmoqlari filiallaridan mutaxassislar, shuningdek, Buxoro viloyati hokimiyati hamda harbiy tashkilot va tuzilmalardan vakillar ishtirok etishdi.<br>Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshligʻining oʻrinbosari N.Negmatov yongʻin xavfsizligi qoidalariga rioya etmagan bir nechta energetika sohasi korxonalari, xususan elektr ta'minoti tashkilotlarining ma'lum qismlari faoliyati toʻxtatib qoʻyilgani va mas'ul shaxslar amaldagi qonunlarga muvofiq javobgarlikka tortilgani, koʻrsatilgan kamchiliklar bartaraf etilayotgani haqida statistik ma'lumotlarni bayon qildi.<br>Seminar yakunida «Oʻzbekiston MET» AJ Xavfsizlik va maxsus ishlar boshqarmasi boshligʻi S.Xaydarov seminarni interaktiv shakldagi savol-javoblar, oʻzaro tajriba almashish muhokamalari bilan yakunladi. | https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5425<br>http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/633<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/633<br>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-12-23-2 |

| | | |
|---|---|---|
| 49 | **Afg‘onistonning «Da Afghanistan Breshna Sherkat» kompaniyasi hamda «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati tomonidan investitsion loyiha yuzasidan kelishuv-shartnomalar imzolandi**<br>“Joriy yilning 22 dekabr kuni «Da Afghanistan Breshna Sherkat» (DABS) kompaniyasi Ijroya direktori Safiulloh Ahmadzay boshchiligida delegatsiya «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati Markaziy boshqaruv apparati binosiga tashrif buyurdi. Mehmonlarni Jamiyat boshqaruv raisi D.Isaqulov hamda ma'muriyat a'zolari kutib olishdi.<br>2020-yil 25-dekabr kuni «O‘zbekiston MET» AJ hamda «Da Afghanistan Breshna Sherkat» kompaniyasi o‘rtasida «500 kV kuchlanishli Surxon–Puli-Xumri havo elektr uzatish tarmog‘i qurish» loyihasini amalga oshirish yuzasidan kelishuv-shartnomalar imzolandi. Shuningdek, shartnoma shartlariga muvofiq kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar hamda chora-tadbirlar rejasi belgilab olindi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/634<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/634<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5449<br>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-12-27 |
| 50 | **XAYRU SAXOVAT — INSONIYLIK ZIYNATI**<br>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati jamoasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xo‘jayli tumanida istiqomat qilayotgan 40 ta kam ta'minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, nogiron farzandi bor, onkologik va surunkali kasalligi mavjud oilalarga xayriya yordamini ko‘rsatishdi.<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumani aholisiga nogiron, onkologik yoki surunkali kasalliklarga chalingan, boquvchisini yo‘qotgan, bir necha yilardan beri ishsizlikdan qiynalib kelayotgan fuqarolarga kuz-qish mavsumining sovuq kunlarida beg‘araz yordam ko‘rsatish bo‘yicha, tuman hokimligining murojaat xati inobatga olingan holda, tumandagi bir nechta ovul fuqarolari yig‘inlarida, jumladan «Kulob», «Jana-jap», «Jan-qo‘ng‘irot», «Amudaryo», «Vodnik» va boshqa hududlarda yashaydigan kam ta'minlangan fuqarolarga xayriya hamda homiylik yordamini amalga oshirish maqsadida Boshqaruv hay'ati qarori qabul qilindi. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/638<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/638<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5472<br>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-12-28<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5473<br>https://t.me/xodjeyli_rk/8277<br>https://t.me/xodjeyli_rk/8298<br>https://www.facebook.com/112376337156697/videos/197068718792604 |
| 51 | **2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e'lon qilindi**<br>Iqtidorli o‘g‘il-qizlarimizning yuqori texnologiyalar va zamonaviy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida alohida universitet tashkil etamiz. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/643<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/643<br>http://uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/643 |
| 52 | **«ENG YAXSHI...» — MUNOSIBLIK E'TIROFI**<br>2020-yil 30-dekabr, bugun — yil sarhisobi va Yangi yil bayrami arafasida, «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi Markaziy boshqaruv apparati, filiallari hamda tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida «ENG YAXSHI...» nominatsiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘rik-tanlov g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.<br>Tadbirni «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi D.A.Isaqulov ochib beribdi | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/649<br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/649<br>https://uza.uz/uz/posts/tanlov-goliblari-munosib-taqdirlandi_198810<br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5516<br>https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-12-30<br>http://uza.uz/posts/198810 |

| | | |
|---|---|---|
| 53 | **2020-YIL SARHISOBI: ELEKTR ENERGETIKA TARMOG‘I TUNU KUN XALQIMIZ XIZMATIDA**<br><br>O‘tib borayotgan 2020-yil nafaqat o‘zbek xalqi, balki jahon ahli uchun sinovli bo‘ldi. Koronavirus balosi bilan kurashish barchaga oson kechmadi. Yaratganga beadad shukrki, O‘zbekiston hukumati va xalqimiz bu ofat bilan kurasha oldi. Barcha sohalarda uning ta'siri sezilsa-da, Prezidentimiz yetakchiligida ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashga erishildi.<br><br>Respublikaning iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va biznes sub'ektlari hamda aholining elektr energiyasiga ortib borayotgan talabini to‘liq qoplash, ya'ni ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasini taqsimlovchi korxonalarga uzatishning ishonchliligini oshirish maqsadida, Jamiyat tassarufidagi elektr tarmoqlarini modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish ishlarini jadal olib bormoqda. Xususan, joriy yilning 10 oyida podstansiyalarda jami 1500 MVA yangi quvvatlar yaratildi.<br><br>O‘tgan 1990-2016-yillar ichida yuqori kuchlanishli podstansiyalarning o‘tkazuvchanlik quvvati deyarli oshirilmagan, elektr tarmoqlar va podstansiyadagi uskuna-jihozlar faqat joriy va mavsumiy ta'mirlangan xolos. Oxirgi 3-4 yilda esa yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarida ulkan modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari olib borildi.<br><br>«Magistral elektr tarmoqlarning podstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish» loyihasi, «Navoiy issiqlik elektr stansiyasi»dan 220 kV li havo liniyasini «Besopan» punktigacha 500 kVli gabaritda qurish» loyihasi, «500/220 kV li «Muruntau» podstansiyasini qurish va uchta 167 MVAlik transformatorlarini o‘rnatish» loyihasi, «O‘zbekiston Respublikasida 500 kVli G‘uzor – Regar (L-507) elektr uzatish liniyasini tiklash» loyihasi, «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi»dan 220 kVli havo liniyasi hamda 220 kV li «Zafarobod» podstansiyasini qurish» loyihasi, «500 –220 kVli «Kolsevaya» podstansiya va elektr uzatish liniyalari qurilishi» loyihasi, «3 ta 167 MVA transformatorli 500/220 kVli «Oltinsoy» podstansiyasi qurilishi» loyihasi, 220 kVli «Amir Temur» podstansiyasi qurilishi va «G‘uzor» podstansiyasidan 220 kV kuchlanishli havo liniyasi qurish hamda boshqa bir nechta investitsion loyihalar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.<br><br>Ahamiyatli jihati, jamiyatning asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichi – mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan va import qilinayotgan elektr energiyasini taqsimlovchi hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga yetkazib berish 102 foizga bajarilganidandir.<br><br>Bugungi kunda «O‘zbekiston MET» AJda raqamlashtirish bo‘yicha bir nechta loyihalar amalga oshirilmoqda. Jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy faoliyat tizimi samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvni optimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimi – ERP dasturini, shu bilan birga, dispetcherlik boshqaruvi va ma'lumotlarni yig‘ish dasturiy-apparat kompleksi – SCADA dasturini joriy qilish bizning dolzarb vazifamizdir. O‘tayotgan yilda bu borada amalga oshirgan ishlarimiz kirib kelayotgan 2021-yilda o‘zining amaliy natijasini beradi, degan umiddamiz. | http://uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/655<br><br>http://uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/655<br><br>https://uza.uz/oz/posts/elektr-energetika-tarmogi-tunu-kun-xalqimiz-xizmatida_199148<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5537<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5535<br><br>https://uza.uz/uz/posts/elektr-energetika-tarmogi-tunu-kun-xalqimiz-xizmatida_199147<br><br>https://t.me/uzmetaxborotxizmati/5528 |